

Sirdaryo viloyatida chakana va ulgurji savdo tovar aylanmasi

2025-yil yanvar-may

dastlabki ma'lumot

- I. CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI
- II. ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI
- III. UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI
- IV. METAMA'LUMOTLAR
- V. ALOQADOR BOSHQA HAVOLALAR


I. CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

2025-yil 1-iyun holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 2 203 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 8 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 2 195 tani tashkil qildi.

2025-yilning yanvar-may oylarida viloyatning chakana savdo tovara ylanmasi 2 544,1 mlrd so'mni tashkil etib, 2024-yilning yanvar-may oylariga nisbatan 108,9% ga yetdi.


Jumladan, yirik korxonalarning tovar aylanmasi 175,5 mlrd so'mni (o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 124,6 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 2 368,6 mlrd so'm (o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 107,8 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 272,3 mlrd so'mni (o'sish sur'ati 110,1 %) tashkil etdi.

Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati (% da)



Mavzuga doir havola: [Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'ati \(oylik\)](#)

Chakana savdo aylanmasi asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi (ulushi foizda)




II. ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

2025-yil 1-iyun holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 1 066 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 7 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 1 059 tani tashkil qildi.

Viloyat bo'yicha 2025-yilning yanvar-may oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi 2 575,3 mlrd so'mni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 11,9 % ga o'sdi.

Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi umumiy hajmi 2 342,6 mlrd so'mni tashkil qilib, 2024-yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 105,8 % ga to'g'ri keldi. Viloyatda jami ulgurji savdo hajmidagi ulushi 91,0 % ni tashkil qildi.


Ulgurji savdo hajmi dinamikasi(mlrd so'm)



Mavzuga doir havola: [Ulgurji savdo hajmi \(oylik\)](#)

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yirik korxonalarning eng yuqori o'sish sur'atiga ega Guliston sh. (1,8m.) va Sirdaryo (17,8m.), Sardoba (5,7m.), tumanlarida kuzatildi.

Hududlar kesimida ulgurji savdo hajmi o'sish sur'atlari (foizda)




Mavzuga doir havola: [Ulgurji savdo hajmi o'sish sur'ati \(oylik\)](#)

III. UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO HAJMI

2025-yil 1-iyun holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalari soni 604 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 1 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 603 tani tashkil qildi.

2025-yilning yanvar-may oylarida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi 1 539,0 mlrd so'mga yetdi. 2024-yilning mos davriga nisbatan 113,2 % ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining 92,3 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi.

Umumiy ovqatlanish korxonalari savdo hajmi o'sish sur'atlari (foizda)



IV. METAMA'LUMOTLAR

Ulgurji va chakana savdo tovar aylanmasi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, O'zbekiston Respublikasining me'yoriy-huquqiy hujjatlari, shuningdek, xalqaro ko'rsatmalar va tavsiyalar "Milliy hisoblar tizimi – 2008", "Chakana va ulgurji savdo statistikasi bo'yicha xalqaro tavsiyalar" (BMT, 2008), Chakana tovar aylanmasining statistik kuzatuv va uning miqdoriy ko'rsatkichini hisoblash bo'yicha uslubiy tavsiyalar hisobga olingan (MDH qo'mitasi, 2011) holda ishlatiladi.

Ulgurji va chakana savdo tovar aylanmasi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha o'tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo'shgan holda hisoblangan.

V. ALOQADOR BOSHQA HAVOLALAR

[Ulgurji savdo hajmi \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Ulgurji savdo aylanmasining o'sish sur'ati \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Chakana savdo aylanmasi hajmi \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'ati \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Aholi jon boshiga chakana savdo hajmi \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Aholi jon boshiga chakana savdo hajmi o'sish sur'ati \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Ovqatlanish korxonalari savdo hajmi \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Ovqatlanish korxonalari savdo hajmi o'sish sur'ati \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

Chop etishga mas'ul: Xizmatlar va savdo soxasi statistikasi bo'limi	Bo'lim boshlig'i: A.Qurbonov Tel: +672367000 (2040)	Ijrochi: A.Qurbonov Tel: +672367000 (2040) e-pochta: info@sirstat.uz	Manzil: Guliston sh., Birlashgan ko'chasi,62
--	--	--	--